IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI YAŞIRIN IQTISODIYOT
ULUŞINI QISQARTIRIŞ, SOLIQ
VA BOJXONA MA'MURÇILIGINI
TAKOMILLAŞTIRIŞ, FISKAL
TAHLILLAR INSTITUTI

FISKAL TAHLILLAR INSTITUTI

BUDJET SIYOSATI VA DAVLAT MOLIYASINI BOŞQARIŞ TIZIMI ISLHOTLARIGA KÖMAKLAŞIŞ BOŞQARMASI

Turistik yiğimlar: Özbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi

Tahliliy ma’lumotnoma

Mualliflar:

Boş mutaxassis F.I.Ş. G.Kaxxarova

TOŞKENT 2026

Mundarija

Qisqaça mazmun 3
1. Özbekistonda turistik yiğim 4
1.1. Amaldagi tartib va yiğim stavkalari 4
1.2. Yiğim undiruvçi sifatida mehmonxonaning majburiyatlari 5
1.3. Asosiy körsatkiçlar dinamikasi 6
2. Xalqaro amaliyot 8
2.1. Umumiy yondaşuvlar 8
2.2. Fransiya 9
2.3. Gretsiya 9
2.4. Yaponiya 10
2.5. Yangi Zelandiya 10
2.6. Ispaniya – tabaqalaştiriş va maqsadli foydalaniş namunasi 11
2.7. Portugaliya 12
2.8. Norvegiya 12
2.9. Qozoğiston 13
3. Xulosa va takliflar 14
3.1. Asosiy xulosalar 14
3.2. Takliflar 14
Foydalanilgan adabiyotlar 15

Qisqaça mazmun

Uşbu şarhda Özbekiston Respublikasida amalda bölgan turistik yiğimlar tizimi hamda xorijiy mamlakatlarda ularni qöllaş mexanizmlari körib çiqilgan. Turistik soliqqa tortişning turli modellari, jumladan, yaşaş uçun undiriladigan yiğim, joylaştiriş qiymatidan foiz hisobida undiriladigan tölov, mamlakatga kiriş yoki undan çiqiş vaqtida undiriladigan yiğimlar, şuningdek, ekologik va infratuzilmaviy yiğimlar örganilgan.

Fransiya, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Gretsiya, Ispaniya, Italiya, Portugaliya, Norvegiya va Qozoğiston tajribasiga alohida e'tibor qaratilgan. Qiyosiy tahlil asosida Özbekistonda turistik yiğimlar tizimini takomillaştirişda amaliy ahamiyatga ega bölişi mumkin bölgan yondaşuvlar aniqlangan.

Asosiy xulosa: turistik yiğim nafaqat fiskal, balki infratuzilmani moliyalaştiriş va turistik yuklamaning qöşimça xarajatlarini qoplaş vositasi hamdir. Şu asosda Özbekiston uçun tört yönalişda taklif berilgan: tuşumning bir qismini turistik yuklama yuqori hududlarning mahalliy budjetlariga yönaltiriş; umummilliy va mahalliy maqsadlar uçun mablağlarni aniq ajratiş; stavkalarni ob'ekt turi, hudud va mavsumiylikka qarab tabaqalaştiriş; bitta ob'ektda uzluksiz yaşaşda yiğim undiriladigan tunlar sonini çeklaş.

1. Özbekistonda turistik yiğim

1.1. Amaldagi tartib va yiğim stavkalari

Turistik yiğim Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 25 avgustdagi 475-son qaroriga muvofiq joriy etilgan bölib, unga 2026 yil 30 yanvardagi 40-son va 2026 yil 16 martdagi 105-son qarorlar bilan özgartirişlar kiritilgan. Yiğim joylaştiriş vositasida yaşovçi har bir şaxsdan **har bir sutka** uçun undiriladi; töliq bölmagan sutka töliq sutka sifatida hisoblanadi. 16 yoşga tölmagan bolalar yiğim tölaşdan ozod etiladi.

Özbekistonda **«bazaviy hisoblaş miqdorining (BHM) foizi»** mexanizmi qöllaniladi. Amalda bu joylaştiriş ob'ektining hajmiga qarab bosqiçma-bosqiç belgilanadigan, bir kişi uçun sutkasiga sömda ifodalangan qat'iy summani anglatadi. 2026 yil 1 sentabrdan BHM 440 000 sömni taşkil etadi (ilgari 412 000 söm bölgan), natijada barça stavkalar 6,8 foizga oşgan.

1.1-jadval. Joylaştiriş vositalaridan undiriladigan turistik (mehmonxona) yiğimning tabaqalaştirilgan miqdorlari

Ob'ekt / tölovçi toifasi	BHM foizi	Bir kişi uçun sutkasiga, söm
Özbekiston fuqarolari va doimiy yaşovçi fuqaroligi bölmagan şaxslar (16 yoşgaça bölgan bolalar tölamaydi)	0,4	1 760
Çet el fuqarolari: oilaviy mehmon uylari (20 tagaça örin), ötovlar, notijorat turar joylar	2	8 800
Çet el fuqarolari: 10 tagaça xonali mehmonxonalar va ularga tenglaştirilgan ob'ektlar; 5 tagaça xonali individual joylaştiriş vositalari (kvartiralar, uylar, xostellar)	5	22 000
Çet el fuqarolari: 11–40 xonali mehmonxonalar va ularga tenglaştirilgan ob'ektlar; ixtisoslaştirilgan dam oliş ob'ektlari (dam oliş uylari, sport bazalari)	10	44 000
Çet el fuqarolari: 40 tadan ortiq xonali mehmonxonalar va ularga tenglaştirilgan ob'ektlar	15	66 000

Manba: Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 25 avgustdagi 475-son va 2026 yil 30 yanvardagi 40-son qarorlari.

Yiğim faqat viloyat markazlari, Toşkent şahri, Nukus şahri hamda 40-son qarorga 2-ilovada körsatilgan 111 ta hududda (tumanlar, şaharlar va turistik zonalar, jumladan «Çorvoq», «Çimyon–Çorvoq», «Şohimardon») undiriladi. Boşqa tumanlarda yiğim undirilmaydi. Yiğim mehmonxonalar, xostellar, mehmon uylari, sanatoriylar va boşqa joylaştiriş ob'ektlari tomonidan yiğiladi.

Hududlar böyiça tabaqalaştiriş faqat çodirli va ötovli lagerlar uçun belgilangan: Qoraqalpoğiston Respublikasida BHMning 7,5 foizi, Buxoro viloyatida 5 foizi, Navoiy viloyatida 2,5 foizi.

Ayrim hollarda yiğimni mehmonxona emas, balki boşqa şaxslar bank filiallari, turistik axborot markazlari va elektron tizimlar orqali tölaydi:

- çodirli lagerlarda hamda tunaş uçun qayta jihozlangan transport vositalarida yaşaşni taşkil etuvçi turoperatorlar va turagentlar;
- Özbekistonga 30 kungaça muddatga kelayotgan çet el fuqarolarini qabul qiladigan va ularga notijorat maqsadlarda turar joy beradigan jismoniy şaxslar;
- mustaqil sayohat qiladigan va çodirli lagerlarda yoki tunaş uçun qayta jihozlangan transport vositalarida yaşaydigan çet el fuqarolari (yiğim tölanmagan taqdirda, mamlakatdan çiqib ketişda ön baravar miqdorida jarima qöllanadi).

Özbekiston fuqarolari sanatoriylar, pansionatlar va davolaş muassasalarida yaşaganida yiğim tölamaydi.

1.2. Yiğim undiruvçi sifatida mehmonxonaning majburiyatlari

Asosiy işlarni joylaştiriş vositasi amalga oşiradi: u yiğimni mehmondan undiradi, hisobini yuritadi va mablağlarni Turizm qömitasi huzuridagi **Turizmni qöllab-quvvatlaş jamğarmasiga** ötkazadi.

Joylaştiriş ob'ekti mehmonlarni maxsus elektron dasturda hisobga oladi, ma'lumotlarni Turizm qömitasiga taqdim etadi hamda yiğilgan mablağlarni keyingi oyning 5-sanasidan keçiktirmay Turizmni qöllab-quvvatlaş jamğarmasining maxsus hisobvarağiga ötkazadi. Yiğim ob'ekt tuşumiga kiritilmaydi va foyda soliği hamda QQS solinmaydi. Mablağlarning töliq va öz vaqtida ötkazilişi uçun rahbar va boş buxgalter javobgar hisoblanadi. Mablağlar maqsadli dasturlar, turizmni tarğib qiliş, içki turizmni rivojlantiriş va mavsum past bölgan davrda joylaştiriş ob'ektlarining bandligini qöllab-quvvatlaşga yönaltiriladi. Şuningdek, 5 foiz mablağ Içki işlar vazirligi huzuridagi Xavfsiz turizmni ta'minlaş jamğarmasiga, 15 foizgaça mablağ esa diplomatik xizmatni rivojlantiriş jamğarmasiga ajratilişi nazarda tutilgan.

1.3. Asosiy körsatkiçlar dinamikasi

Turistik yiğim va turizm sohasining asosiy körsatkiçlari dinamikasi 1.2-jadvalda keltirilgan.

1.2-jadval. Asosiy körsatkiçlar dinamikasi

Körsatkiç	2023	2024	2025	yanv.–sent. 2026
Turistik yiğimlardan tuşum, mlrd söm	156,1	239,9	317,1	272,2
Xorijiy turistlarning kirib kelişi, mln kişi	6,63	10,06	11,68	10,31
Içki turistik oqim, mln kişi	20,64	22,67	23,78	21,82
Xorijiy turistlarning tunab qolişlari, mln	5,50	6,42	7,35	7,28
Içki turistlarning tunab qolişlari, mln	5,56	6,15	7,81	7,16
Örtaça qoliş davomiyligi, tun	5	6	6	8
Joylaştiriş ob'ektlari / şundan yiğim tölovçilari, ming	5,53 / 2,81	6,15 / 3,21	6,92 / 3,70	7,59 / 4,13
Xona fondi / yotoq örinlari, ming	63,5 / 144,1	70,5 / 161,4	79,8 / 185,6	88,0 / 207,1
Turistik xizmatlar eksporti, mlrd AQŞ dollari	2,14	3,40	4,83	5,34
Turistning bir safar uçun örtaça xarajatlari, AQŞ dollari	323,5	337,5	413,3	517,7
Turoperatorlar va turagentliklar soni, dona	2 725	3 686	4 406	4 886
Sohaga davlat tomonidan körsatilgan qöllab-quvvatlaş, mlrd söm	0	3,9	101,8	64,8

Manba: Turizm qömitasining dastlabki ma'lumotlari.

Turistik yiğimlardan tuşum 2023–2025 yillarda 2,03 baravar oşgan (2024 yilda 53,7 foizga, 2025 yilda 32,2 foizga). 2026 yil yanvar–sentabr oylarida 272,2 mlrd söm yiğilgan bölib, bu 2025 yil körsatkiçining 85,8 foizini taşkil etadi. Xorijiy turistlar soni 76,3 foizga (6,63 mln nafardan 11,68 mln nafargaça), xorijliklarning tunab qolişlari 33,6 foizga, içki turistlar soni esa 40,3 foizga oşgan. 2026 yilning töqqiz oyida xorijiy turistlarning tunab qolişlari 7,28 mln tani taşkil etib, 2025 yilning yillik körsatkiçiga nisbatan 99,1 foizga yetgan. 2023 yildan 2026 yil sentabrigaça joylaştiriş ob'ektlari soni 37,3 foizga, yiğim tölovçilari soni esa 46,9 foizga köpaygan. Xonalar fondi 88 mingga (2025 yilga nisbatan +10,3 foiz), yotoq örinlari 207,1 mingga (+11,6 foiz) yetgan. Turistik xizmatlar eksporti 2023–2025 yillarda 2,25 baravar oşgan, 2026 yilning töqqiz oyida turistning örtaça xarajati 517,7 AQŞ dollarini taşkil etgan (2025 yilga nisbatan +25,3 foiz).

Turoperatorlar va turagentliklar soni 2023 yildagi 2 725 tadan 2025 yilda 4 406 taga, 2026 yil yanvar–sentabr oylarida esa 4 886 taga yetgan.

2025 yilda davlat tomonidan qöllab-quvvatlaş hajmi qariyb 101,8 mlrd sömni taşkil etib, 2024 yil körsatkiçidan sezilarli darajada yuqori bölgan. 2026 yil yanvar–sentabr oylarida 64,8 mlrd söm yoki 2025 yil körsatkiçining qariyb 63,7 foizi qayd etilgan.

2. Xalqaro amaliyot

2.1. Umumiy yondaşuvlar

Turistik yiğim (yaşaş uçun soliq, kurort yiğimi) – bu hududda böliş uçun undiriladigan maqsadli tölov bölib, foyda soliği yoki qöşilgan qiymat soliği hisoblanmaydi. Odatda uşbu mablağlar törtta asosiy yönalişga sarflanadi: infratuzilmani (yöllar, transport, yoritiş, tozalaş, plyajlar) qöllab-quvvatlaş; atrof-muhitni muhofaza qiliş; turizmni rivojlantiriş (hududni tarğib qiliş, madaniy tadbirlar, ob'ektlarni restavratsiya qiliş); turistik yuklama ortişi natijasida mahalliy resurslar va xizmatlarga tuşadigan qöşimça bosimni qoplaş.

OECD va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida turistik soliqlar, yiğimlar va tölovlar, köpinça yaşaş, yotoq örni, xona yoki vaqtinça taşrif buyuruvçilar soliği deb ataladigan tölovlar keng tarqalgan. Turistik soliqlar, asosan, turistik yoki joylaştiriş xizmatlarini körsatuvçi sub'ektlardan (mehmonxonalar, mehmon uylari, kempinglar, dam oliş uylari va boşqalar) undiriladi. Odatda ular pullik joylaştiriş vositalarida qisqa muddatli yaşaş uçun qöllaniladi.

Joylaşuvga (masalan, Amsterdamdagi kabi şaharning tarixiy markazi va çekka hududlari örtasida), joylaştiriş sifati va qiymatiga, yil fasliga (yuqori va past mavsum) yoki tölovçi toifasiga (Amsterdamdagi kabi xorijiy fuqarolar, boşqa hududlardan keluvçilar va mahalliy aholi) qarab tabaqalaştirilgan stavkalar belgilanişi mumkin. Şuningdek, yoşlar yoki xizmat safari bilan kelgan şaxslar uçun imtiyozlar yoxud pasaytirilgan stavkalar qöllanişi mumkin (masalan, Berlin va Gamburgda).

Turistik soliqlar, odatda, katta bölmasada, mahalliy hokimiyat organlari daromadlarini töldirişi mumkin. Soliqni undiriş mexanizmlari mamlakatlarga qarab farq qiladi va ular turli asoslarda – «**har bir kişi uçun bir tun**», «**har bir xona uçun bir tun**» yoki xona narxining muayyan uluşi sifatida undiriladi. Odatda, ular submilliy (asosan munitsipal) darajada boşqariladi va turistik soliq tuşumlari hududiy hamda munitsipal organlar (Ispaniyada qöllaniladigan amaliyot kabi) yoki boşqa davlat organlari örtasida taqsimlanişi mumkin.

Odatda yiğim bron qiliş narxiga kiritilmaydi va joyida tölanadi; köplab mamlakatlarda muayyan yoşgaça bölgan bolalar (12, 16 yoki 18 yoş) tölovdan ozod qilinadi yoki kamroq miqdorda tölaydi.

Jahonda uçala hisoblaş bazasi ham qöllaniladi: «**har bir kişi uçun**», «**har bir xona uçun**» va «**narxdan foiz sifatida**». Sönggi yillarda köplab mamlakatlar infratuzilma, ekologik çora-tadbirlar va turistik yuklama bilan boğliq xizmatlarni moliyalaştiriş maqsadida yiğimlarni oşirmoqda.

2.2. Fransiya

Fransiyaning turistik soliği (**taxe de séjour**) – bu **mahalliy munitsipalitetlar** tomonidan turizm infratuzilmasi va xizmatlarini moliyalaştiriş uçun belgilanadigan, har bir kişi va **tun hisobida** undiriladigan yiğimdir. Stavkalar joylaştiriş turi va hududga qarab farqlanadi. Yiğimdan tuşgan daromadlar turizmni rivojlantirişga kömaklaşuvçi tadbirlarga, şuningdek, turistik maqsadlarda tabiiy hududlarni muhofaza qiliş va boşqarişga yönaltiriladi.

Raqamli ma'murçilik muhim element hisoblanadi. Munitsipalitetlar stavkalarni Fransiya Davlat moliyasi boş boşqarmasi (DGFiP) tomonidan işlab çiqilgan **DELTA** tizimiga kiritadi. Stavkalar haqidagi ma'lumotlar turistlar uçun e'lon qilinadi, raqamli platformalar esa tegişli ma'lumotlarni XML formatida olişi mumkin.

2026 yil 1 yanvardan Parijda yaşaş soliği bazaviy stavka, 10 va 15 foizlik ustamalar hamda Il-de-Frans transporti foydasiga 200 foizlik ustamani öz içiga oladi. Bir kişi uçun sutkalik jami tölov: alohida turar joy – 15,93 yevro, 5 yulduzli mehmonxona – 11,70 yevro, 4 yulduzli – 8,45 yevro, 3 yulduzli – 5,53 yevro. Tasniflanmagan turar joy uçun tölov tunaş narxining 5 foizini (ustamalar bilan birga) taşkil etadi, biroq 15,93 yevrodan oşmaydi. 18 yoşgaça bölgan şaxslar butun mamlakat böylab uşbu tölovdan ozod qilingan.

2.3. Gretsiya

Gretsiyada mehmonxonalarda va turar joyni qisqa muddatli ijaraga berişda majburiy yaşaş soliği amal qiladi. Soliq **har bir tun** uçun undiriladi hamda turar joy turi va mavsumga qarab farqlanadi. Turistik soliq – turistlardan undiriladigan **mahalliy soliq** bölib, u iqlim inqiroziga çidamlilik yiğimini ham öz içiga oladi.

«**Iqlim inqiroziga çidamlilik yiğimi**» (Climate Crisis Resilience Fee) 2024 yil 1 yanvardan butun mamlakat böylab amal qiladi. U har bir kişidan emas, balki xona yoki joylaştiriş ob'ektidan undiriladi. Yuqori mavsumda (aprel–oktyabr) stavkalar: 1–2 yulduzli mehmonxonalar – 2 yevro, 3 yulduzli – 5 yevro, 4 yulduzli – 10 yevro, 5 yulduzli – 15 yevro. Past mavsumda: 1–2 yulduzli mehmonxonalar – 0,50 yevro, 3 yulduzli – 1,50 yevro, 4 yulduzli – 3 yevro, 5 yulduzli – 4 yevro. Qisqa muddatli ijara reyestriga kiritilgan villalar va kvartiralar uçun bir ob'ektga sutkasiga 15 yevrogaça tölov belgilanadi.

Turistlardan yiğilgan mablağlar tabiiy ofatlardan (yonğinlar, suv toşqinlari va boşqalar) zarar körgan hududlarni tiklaşga, şuningdek, iqlim özgarişiga çidamlilikni oşirişga yönaltiriladi.

2.4. Yaponiya

Yaponiyada «**şukuxakudzey**» nomi bilan tanilgan yaşaş soliği mehmonxonalar, ryokanlar (an'anaviy mehmonxonalar) va joylaştiriş uçun mobil ilovalardan foydalanib turar joy olgan mehmonlardan undiriladigan **mahalliy yiğim** hisoblanadi. U mahalliy va xorijiy turistlarga birdek tatbiq etiladi.

Yaponiya, şuningdek, prinsipial jihatdan boşqa model – **International Tourist Tax** tizimidan foydalanadi. Soliq Yaponiyadan çiqib ketayotgan yölovçilardan undiriladi. Çiqiş soliği fuqaroligi, viza maqomi yoki kema kayutasi sinfidan qat'i nazar, mamlakatni havo yoki dengiz yöli orqali tark etayotgan barça sayohatçilarga tatbiq etiladi. Yaponiya fuqarolari ham xorijiy turistlar bilan bir xil soliqni tölaydi.

2026 yilda stavka bir marta çiqib ketiş uçun 1 000 iyendan 3 000 iyenga oşirildi. Yangi stavka 2026 yil 1 iyuldan boşlab amalga oşiriladigan çiqişlarga nisbatan qöllanadi; avval tuzilgan ayrim transport şartnomalari uçun alohida ötiş qoidasi nazarda tutilgan.

Yaşaş soliğidan tuşgan daromadlar infratuzilma, jamoat transporti va turistik ob'ektlarni yaxşilaşga, şuningdek, sayohat vaqtida turistlarni xulq-atvor qoidalariga örgatiş kampaniyalarini ötkazişga yönaltiriladi.

2.5. Yangi Zelandiya

Xorijiy taşrif buyuruvçilar uçun tabiatni muhofaza qiliş va turizm böyiça **xalqaro yiğim** (**International Visitor Conservation and Tourism Levy, IVL**) Yangi Zelandiyada 2019 yilda joriy etilgan. Tegişli toifaga kiruvçi aksariyat xalqaro taşrif buyuruvçilar uçun yiğim miqdori 100 Yangi Zelandiya dollarini taşkil etadi. U viza oliş yoki **NZeTA (New Zealand Electronic Travel Authority)** rasmiylaştiriş jarayonida undiriladi.

Uşbu yiğim hisobidan töplangan mablağlar tabiatni muhofaza qiliş loyihalariga, mahalliy ekotizimlarni tiklaşga hamda turizmning barqaror rivojlanişiga xizmat qiladigan infratuzilmani rivojlantirişga yönaltiriladi. Mamlakatga taşrif buyurgan har bir turist Yangi Zelandiyaning tabiiy merosini asraşga öz hissasini qöşadi.

2.6. Ispaniya – tabaqalaştiriş va maqsadli foydalaniş namunasi

Kataloniyadagi turistik soliq rasman **Impost sobre les Estades en Establiments Turístics (IEET)** deb ataladi va röyxatdan ötgan turistik joylaştiriş ob'ektlarida har bir

tun uçun mehmonlardan undiriladigan **hududiy soliq** hisoblanadi. Mehmon soliqni tölaydi, joylaştiriş ob'ekti esa uni yiğadi, deklaratsiya qiladi va Kataloniya soliq agentligiga (Agència Tributària de Catalunya, ATC) ötkazadi.

Soliq ikki darajali bölişi mumkin. Kataloniya hukumati tomonidan belgilanadigan hududiy stavka butun Kataloniya böylab qöllanadi va joylaştiriş toifasiga qarab farqlanadi. Bundan taşqari, munitsipalitet özining qöşimça yiğimini belgilaşi mumkin. Bunga eng yaqqol misol – Barselona: 2026 yilda u yerda munitsipal yiğim joylaştiriş turidan qat'i nazar, bir kişi uçun **bir tun** hisobida 5 yevroni taşkil etadi va tegişli hududiy stavkaga qöşiladi.

Kataloniyaning boşqa hududlarida stavkalar pastroq; masalan, 5 yulduzli ob'ektlar uçun 4,50 yevro, 4 yulduzli ob'ektlar uçun 1,80 yevro. Şuningdek, bir joylaştiriş ob'ektida uzluksiz yaşaşning **yettinçi tunidan keyin** soliq undirilmaydi.

Barselonada hududiy stavka ustiga şahar ustamasi – 5 yevro qöşiladi. Bir kişi uçun sutkalik jami tölov: 5 yulduzli mehmonxona – 12 yevro; 4 yulduzli mehmonxona – 8,40 yevro; turistik kvartira – 9,50 yevro; xostel – 6 yevro. Tölov köpi bilan 7 tun uçun undiriladi, 17 yoşgaça bölgan bolalar ozod etiladi.

Daromadlarni maqsadli taqsimlaş amaliyoti alohida e'tiborga loyiq. 2026 yil 1 apreldan tuşumlarning 25 foizi uy-joy siyosatiga, 75 foizi esa Turizmni rivojlantiriş jamğarmasiga yönaltiriladi. Bu turistik tölovlardan nafaqat bevosita turizm tadbirlarini, balki turistik yuklamaning şahar muhitiga ta'siri bilan boğliq xarajatlarni ham moliyalaştiriş mumkinligini körsatadi.

2.7. Portugaliya

Portugaliyaning turistik soliği (**taxa municipal turística** yoki qisqaça **taxa turística**) – yaşaş uçun tölov hisobiga qöşiladigan, bir kişi uçun **har bir tun** böyiça undiriladigan tölovdir. U barça litsenziyalangan joylaştiriş ob'ektlariga – mehmonxonalar, xostellar, mehmon uylari va Alojamento Local ob'ektlariga tatbiq etiladi. Alojamento Local Portugaliyadagi **Airbnb** e'lonlari va qisqa muddatli ijara ob'ektlarining aksariyatini qamrab oluvçi huquqiy toifadir.

Portugaliyada turistik soliq **munitsipal yiğim** hisoblanadi. Yagona umummilliy stavka mavjud emas. Har bir şahar kengaşi (câmara municipal) uşbu yiğimni joriy etiş yoki etmaslikni va uning miqdorini mustaqil belgilaydi.

2026 yilda Lissabonda turistik soliq bir kişi uçun bir tun uçun 4 yevroni taşkil etadi; bir safar doirasida **köpi bilan 7 tun** uçun undiriladi. Portu şahrida 13 yoş va undan katta mehmonlardan bir kişi uçun bir tuniga 3 yevro olinadi, biroq butun yaşaş

davri (7 tun) uçun jami 21 yevrodan oşmaydi. Algarveda 16 ta munitsipalitetdan faqat 7 tasi yaşaş uçun tölov undiradi. Madeyrada (Funşal) – bir kişi uçun bir tuniga 2 yevro, ketma-ket köpi bilan 7 tun; Kaşkayşda – bir kişi uçun bir tuniga 1 yevro, ketma-ket köpi bilan 7 tun.

Soliq tuşumlari munitsipal turizm infratuzilmasini moliyalaştiradi: köçalarni tozalaş, jamoat transporti, plyajlarni saqlaş, yöl körsatkiçlari va madaniy dasturlar.

Ma'murçilik uçun munitsipalitetning maxsus elektron platformasidan foydalaniladi. Uning yordamida joylaştiriş ob'ektlari röyxatdan ötadi, yiğimni hisoblaydi va ötkazadi. Tuşumlar Lissabonda turizmni rivojlantiriş va uning sifatini oşirişga bevosita yoki bilvosita xizmat qiladigan loyihalar, tadqiqotlar, jihozlar va infratuzilmaga yönaltiriladi.

2.8. Norvegiya

Norvegiyada joylaştiriş uçun **mahalliy yiğim** modeli amal qiladi; munitsipalitetlar uni ixtiyoriy ravişda joriy etişi mumkin.

Stavka QQSsiz joylaştiriş qiymatining 3 foizini taşkil etadi. Munitsipalitet yiğimni yilning barça oylariga yoki faqat ayrim oylariga belgilaşi mumkin. Yiğim yaşaşning sof qiymatidan hisoblanadi hamda mehmonxonalar, mehmon uylari, xostellar va Airbnb kabi platformalar orqali bron qilinadigan qisqa muddatli ijara uylariga tatbiq etiladi. Kruiz kemalari yölovçilari ham qamrab olinadi, şu sababli dasturda iştirok etişga qaror qilgan şahar kemalarda kelib, bir kunlik qirğoqqa tuşadigan taşrif buyuruvçilardan ham yiğim undirişi mumkin.

Tuşumlar quyidagilarni moliyalaştirişga yönaltirilişi mumkin:

- munitsipal xizmatlar;
- tabiiy hududlar;
- madaniy meros ob'ektlari;
- infratuzilma;
- taşrif buyuruvçilar soni ortişi sababli yuklamasi sezilarli oşadigan binolar va boşqa ob'ektlar.

2.9. Qozoğiston

Bed tax yoki «**yotoq örni soliği**» – Qozoğiston hududidagi mehmonxonalar, xostellar, apartamentlar va boşqa joylaştiriş ob'ektlarida töxtaydigan çet el fuqarolaridan undiriladigan yiğimdir.

Qozoğistonda bed tax 2022 yil 1 yanvardan joriy etilgan. 2022 yilda yiğim undirilmagan, 2023 yil yanvar oyida esa mamlakat böylab yaşaş qiymatining 1 foizidan 5 foizigaça bölgan stavkalar belgilangan.

Yiğim mehmonxonada yaşaşning **har bir sutkasi** uçun undirilgan. Hududlar mehmonxona xonasi qiymatidan foiz körinişida öz yiğim stavkasini belgilaşi mumkin bölgan.

Qozoğiston Turizm va sport vazirining 2023 yil 27 dekabrdagi buyruğiga muvofiq, 2024 yil 9 yanvardan mamlakatda turistik soliq bekor qilingan. Hozirda mamlakatning butun hududida nol stavka amal qiladi.

3. Xulosa va takliflar

3.1. Asosiy xulosalar

Xorijiy tajriba tahlili şuni körsatadiki, turistik yiğimlar nafaqat fiskal vazifani bajaradi, balki turistik infratuzilmani moliyalaştiriş, jamoat joylarini saqlaş hamda turistlar oqimi yuqori bölgan hududlarda yuzaga keladigan qöşimça xarajatlarni qoplaş vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Xalqaro amaliyotda stavkalar joylaşuv va joylaştiriş ob'ekti turiga qarab farqlanadi, ayrim yurisdiksiyalarda esa soliq solinadigan tunlar soniga çeklovlar belgilangan. Özbekiston uçun bunday yeçimlarni qöllaş yaşaş qiymati, mehmonxona biznesining raqobatbardoşligi va turistik yiğimlardan tuşadigan daromadlarga ta'sirini baholaşni talab etadi.

3.2. Takliflar

1. Özbekistonda turistik yiğimni taqsimlaşning amaldagi mexanizmini özgartiriş maqsadga muvofiqligini örganiş hamda tuşumlarning muayyan qismini turistik yuklama yuqori bölgan tuman va şaharlarning mahalliy budjetlariga yönaltiriş imkoniyatini nazarda tutiş.

2. Turizmni rivojlantiriş böyiça umummilliy tadbirlarga yönaltiriladigan mablağlar bilan mahalliy vazifalarni hal etiş uçun foydalaniladigan mablağlarni aniq ajratib körsatişni nazarda tutuvçi tartibni joriy etiş.

3. Joylaştiriş ob'ektining turi va toifasi, hudud, mavsumiylik hamda boşqa ob'ektiv omillarni hisobga olgan holda tabaqalaştirilgan stavkalarni qöllaş imkoniyatini baholaş.

4. Ispaniya va Portugaliyaning ayrim turistik hududlari tajribasini hisobga olib, bir taşrif buyuruvçining bitta joylaştiriş ob'ektida uzluksiz yaşaşi davomida turistik yiğim undiriladigan tunlar sonini çeklaş imkoniyatini körib çiqiş.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 30 yanvardagi 40-son qarori, 2-ilova (111 ta hudud). Lex.uz: https://lex.uz/docs/8036166

2. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 25 avgustdagi 475-son qarori, 2026 yil 17 mart holatidagi tahriri (1–3-ilovalar). Lex.uz: https://lex.uz/docs/6173258

3.OECD manbasi: https://www.oecd.org/en/publications/a-review-of-local-government-finance-in-israel_a5bc4d25-en/full-report/policy-recommendations_4905f8fc.html

4.OECD manbasi: https://www.oecd.org/en/publications/the-future-of-regional-development-and-public-investment-in-wales-united-kingdom_e6f5201d-en/full-report/component-8.html

5.https://finance.ua/goodtoknow/turystychni-podatky-v-krainakh-yevropy-2025-shcho-treba-znaty

6. OECD, Tax Policy Reforms 2026: https://www.oecd.org/en/publications/tax-policy-reforms-2026_43d18a55-en/full-report/tax-policy-reforms_82075677.html

7. https://selfguidejapan.com/blog/japan-tourist-tax-2026

8. https://www.tourister.ru/world/oceania/new-zealand/news/38083

9. https://chekin.com/en/blog/complete-guide-to-the-tourist-tax-in-catalonia/

10.https://www.portugalportfolio.com/portugal-tourist-tax-2026-verified-rates-by-region

11. https://atc.gencat.cat/es/tributs/ieet

12. https://www.immigration.govt.nz/process-to-apply/applying-for-a-visa/fees-processing-times-and-refunds/paying-the-international-visitor-levy

13. https://www.nta.go.jp/english/taxes/indirect/basic_knowledge.htm

14. https://www.legifrance.gouv.fr/codes/article_lc/LEGIARTI000051200799